

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

K.A.Abrorxonova

Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, PhD. dotsent

Normamatova Feruza

TDPU ning Boshlang'ich ta'lim fakultetining 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalashga ko'maklashish, ularning kitobxonlik savodini shakllantirish, dunyoqarashlarini o'stirish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompleks chora-tadbirlar, psixologlar, mutaxassislar, munozara, kitobxonlik, ensiklopedik, millat, mutolaa

Bugungi rivojlangan davrda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarning vaqtini mazmunli va samarali qilish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kitob o'qish madaniyatini takomillashtirish, har jihatlama yetuk qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi qonuni ham o'z ifodasini ko'rsatadi. Bu qarordan ko'zlangan maqsad xalqimiz ma'naviy dunyosini boyitish, kitobxonlik madaniyatini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan muhim bir hujjat ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinflarning bilim-malakasini oshirish, ularni kitobga oshno qalb sifatida ulg'aytirish ustozlar va ota-onalarning burchidir. Ularga "Kitob o'qi! Shunda o'zingga yaxshi bo'ladi" degan odatiy gaplat bilan bolalarni kitobxonlikka o'rgatish qiyin. Chunki, bugun bolalar uchun kitob o'qishdan ko'ra osonroq va qiziqarliroq mashg'ulotlar ham, ermaklar ham ko'payib ketgan. Shu sababli, ularni dars davomida turli xil metodlar bilan kitob o'qishga qiziqtirish, foydalanayotgan telefonida ham turli xil qiziqarli kitoblarni yuklab berish kerak. Yosh bolalar asosan suratli kitoblarga qiziqishadi. Shunday kitoblarni o'yin shaklida qilib qiziqtirish kerak. Masalan bu muhitni oilada shakllantirish kerak. Bola ota-onasi kitob o'qib turgan holatini ko'rsa bolada ham kitob o'qishga bo'lgan moyillik seziladi, o'qishni xohlaydi. Ota-ona esa bu vaziyatdan foydalanib, bolasiga har xil ertak kitoblarni o'qib berishi, bola uchun tushunarli qilib rollarga kirishishi, ajoyib o'yinchoqlarni tilga kiritishi bilan bolaning diqqatini jalb qiladi. Bolada kitobga bo'lgan mehrni o'stiradi. Bu haqida mutaxassislar shunday deydi: "Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos

munosabat o'rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda aslo paydo bo'lmaydi".

Har bir yosh avlod ma'naviy kamolotini yuksaltirish, ularni kitobga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish yoshlik chog'idanoq rivojlantirish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinflarda kutubxona yaratish, ularni jalb qiladigan asar, darslik, ensiklopedik kitoblar bilan ta'minlash lozim. O'qituvchi esa darsdan keyin alohida ular bilan birga shug'ullanishi, yutuqli va sovrinli savol-javoblar qilishi kerak. Bolalarda bir-biriga raqobat muhitini shakllantirish, baxs va munozaralar qilishni tashkillashtirish kerak. Jamoa bo'lib harakatlansa bolalar ham doimo olg'a intiladi. O'z tengquridan ko'proq narsa o'rganishga chog'lanadi. Bu haqida "Farzandingizni mutolaga qiziqtirish uchun o'zingiz har kuni u bilan kamida yarim soat kitob o'qing. Bu jarayon bola uchun xuddi o'yin o'ynayotganidek maroqli bo'lsin", -deyishmoqda psixologlar. Chindan ham bola nimadan ko'proq zavq olsa, imkon qadar shunga talpinadi. Kitob o'qishga havas bir zumda shakllanmaydi, albatta. Buning uchun muntazam ravishda bolani qiziqtirish, avvalo, qalbida mutolaga bo'lgan intilishni uyg'otish zarur.

Mutolaga qiziqishning susayishi, o'z navbatida aholi savodxonligi darajasi pasayishi, jamiyat va davlat, millatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda bu yomon holatning oldini olishga yo'naltirilgan qat'iy chora -tadbirlar ko'rilmogda. Umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilmogda. Masalan, Rossiyada "Mutolani qo'llab -quvvatlash va rivojlantirish milliy dasturi" qabul qilingan bo'lib, uni 2007-2020-yillarda 3 bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

1-bosqich:2007-2010-yillar;

2-bosqich:2011-2015-yillar;

3-bosqich:2016-2020-yillar.

Muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan 5ta muhim tashabbus ichida, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi fikrimizning yaqqol misolidir. Bundan tashqari yurtdoshimiz kitobxonlikni yanada takomillashtirish uchun yana bir qancha qonunlar qilgan. Shulardan biri "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlaridir. Shu bilan birgalikda 21-may "Kutubxonachilar kuni" deb belgilanishi ushbu kunda Kutubxonachilarning ko'p yillik halol mehnati va axborot-kutubxonachilik sohasini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi va rag'batlantirishi ko'zda tutilganligi sohamizdagi Prezidentimiz tomonlaridan ko'rsatilgan juda katta g'amxo'rlik ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.A.Qilichboyev// "XXI asrda bolalar kitobxonligi" mavzusidagi ilmiy konferensiya maqolalari to'plami (3-may 2016-yil)-Toshkent,2016.-B.31-33.
- 2.Teshaboyeva U. Kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan muhim hujjat: [O'zbekiston Milliy kutubxonasida mutolani ommalashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar]/U.Teshaboeva //Kutubxona.uz.-2017.N°4.-B.1-3.
- 3.Teshaboyeva U. Muhim hujjat:[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil13-sentabr] Kitob dunyosi.-2017.-13-dek.-B.8
- 4.Qilichboyev,A. Kitob o'qishning 21ta foydasi/A.Qilichboyev//"XXI asrda bolalar kitobxonligi mavzusidagi ilmiy konferensiya maqolalari to'plami(3-may 2016-yil)
5. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
6. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
7. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.
8. Safarova P.F., Sh.Ne'matov va boshq. O'quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar.- T:Fan va texnologiya, 2011 yil. 160b. [1,2], [1,8].
9. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. (manual). Swedish, Division for Development of Teaching and Learning,Uppsala University, 2010 yil. [4,4]
10. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.
11. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
12. Hayitov, A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.
13. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
14. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.

15. Rahmatova, F., & Abrorkhonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 1(Архив№ 2).

16. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.

17. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).

18. Norboy o'g'li, H. F. (2023). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 37(1), 44-48.